

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA ATROF-MUHITGA  
MAS'ULIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

**Boltayeva Manzura Boyturayevna**

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti*

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhit va ekologiyaga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish maqsadida ta'lim jarayonlarini erta yoshdan boshlash va bu jarayonlarda barcha mashg'ulotlarni bevosita tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish, bolalarda atrof - muhitga nisbatan mehr va muhabbat tuyg'ularini ongli ravishda his etishlari uchun imkoniyatlar yaratish mavzusida so'z boradi. Shuningdek bolalarda tabiat bilan do'stlashish va uni asrab avaylash tuyg'ularini shakllantirishda olib boriladigan ta'limiy metodlar haqida atroflicha so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *tabiat, ekologiya, atrof muhit, kuzatish metodikasi, metodlar, hamkorlikda ishlash, yangicha uslublar, rivojlanish, tahlil, tavsiya, tamoyillar, yondashuv.*

**Аннотация:** *В данной статье обсуждается необходимость начинать образовательный процесс с раннего возраста для формирования у детей дошкольного возраста ответственного отношения к окружающей среде и экологии, начинать все виды деятельности непосредственно с взаимодействия с природой и окружающей средой, а также создавать возможности для того, чтобы дети сознательно испытывали чувства любви и привязанности к окружающей среде. Также подробно рассматриваются образовательные методы, используемые для формирования у детей чувства дружбы с природой и ее сохранения.*

**Ключевые слова:** *природа, экология, окружающая среда, методология наблюдения, методы, совместная работа, новые методы, разработка, анализ, рекомендации, принципы, подход.*

**Abstract:** *In this article, in order to promote environmentally and environmentally responsible behavior in schools, educational activities should be opened early and all activities in these activities should be carried out without nature and environmental problems The topic of creating opportunities for the development of feelings of love and affection was discussed. In the listening session, the teaching methods used to shape the feelings of friendship with nature and uniformity were discussed.*

**Keywords:** *nature, ecology, atrophic environment, environmental methodology, methods, self-study, new styles, analysis, recommendation, interpretations.*

Azal-azaldan tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatlardan biri sifatida doimo e'tirof etilgan ammo tabiat bilan uyg'unlik masalalarida ma'lum davrlarda ba'zi munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi bugungi kunga kelib eng dolzarb muammolarga sabab bo'lmoqda. Hech birimizga sir emaski, tabiat va atrof-muhitga oqilona munasabatni

shakllantirishdagi e'tiborsizlik bugunning global miqyosda deyarli barcha mamlakatlarda tahlikali muammolarni yuzaga keltirmoqda. Tabiat- ekologiya, atrof muhit , tug'ilish, yashash, o'sish, rivojlanish va faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta'sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog'liq hamdir. Insoniyatni tabiat bilan bog'laydigan omillar texnika, iqtisodiy va ekologik munosabatlarini ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish zaruriyat ekanligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan tabiat, atrof-muhit va hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg'otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida tadqiq etilishi lozim bo'lgan mas'uliyatli bir tushunchadir. Ayniqsa, bu yo'nalish hozirgi kunda esa davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bo'lgan ehtiyojining kuchayganligi sababidan e'tiborning kuchayib borishi va talab doirasida dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga to'g'ri munosabat shakllantirishni amalga oshirishga oid pedagogik jarayonni tashkil etish, ularni atrof-muhit va tabiat bilan tanishtirishga innovatsion yondashuvlar asosida yondashish, bolalarning rivojlanish xususiyatlariga mos dasturlardan foydalanish, bolalarga zamonaviy yondashuvlar asosida ekologik tushunchalarni yetkazish va ularda ekologik ongni shakllantirish hamda tabiat bilan tanishtirish mazmuni, usul va tushunchalarini takomillashtirish yuzasidan bir qator ishlar muvaffaqiyatli bir tizimda amalga oshirilmoqda.

Bugungi globallashtirish sharoitida ekologik muammolar — atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishi — insoniyat oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois yosh avlodni tabiatga ongli va mas'uliyatli munosabat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri ekologik tarbiyaning eng muhim bosqichi bo'lib, bu davrda bolalarda tabiatga mehr, ehtiyotkorlik va mas'uliyat hissi shakllanadi.

Tabiat va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bir qator pedagogik talablarga asoslanadi. Avvalo, tarbiya jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab nazariy tushunchalar emas, balki sodda, tushunarli va ko'rgazmali materiallar samarali hisoblanadi.[5] Ayniqsa, ekologik tarbiya tizimli va uzluksiz bo'lishi kerak. Bu jarayon faqat alohida mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmay, balki kundalik hayot faoliyatiga singdirilishi lozim. Masalan, suvni tejash, chiqindilarni to'g'ri tashlash kabi oddiy odatlar muntazam ravishda mustahkamlanishi zarur.

Ta'lim jarayonlarida amaliy faoliyatga ustuvor ahamiyat berish talab etiladi. Bolalar tabiatni faqat eshitish orqali emas, balki bevosita faoliyat jarayonida — o'simlik ekish, uni parvarish qilish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish orqali chuqurroq anglaydi. Shuningdek, tarbiyachi va ota-onalarning shaxsiy namunasining ahamiyati katta. Kattalarning tabiatga ehtiyotkorona munosabati bolalar uchun bevosita namuna bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik ekologik tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Ekologik tarbiya metodikasi tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda turli pedagogik metodlardan foydalaniladi. Eng samarali metodlardan biri — o'yin metodidir.

O‘yin orqali bolalar murakkab tushunchalarni oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradi. Masalan, “tabiat himoyachilari” kabi rolli o‘yinlar bolalarda ekologik ongini rivojlantiradi.

Kuzatish metodi ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘simliklar o‘sishini, ob-havo o‘zgarishlarini yoki hayvonlarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali tabiat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bu esa ularda sabab-oqibat bog‘liqligini anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Amaliy faoliyat metodi ekologik tarbiyaning eng ta‘sirchan yo‘llaridan biridir. Gul ekish, daraxt parvarishlash, “tabiat burchagi” tashkil etish kabi mashg‘ulotlar bolalarda mas‘uliyat hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, suhbat va tushuntirish metodlari orqali bolalarga ekologik bilimlar beriladi. Ertaklar, hikoyalar va hayotiy misollar yordamida tabiatni asrash g‘oyasi bolalar ongiga singdiriladi.

Tajriba (eksperiment) metodlari ham samarali hisoblanadi. Oddiy tajribalar orqali bolalar tabiat hodisalarini amaliy ravishda tushunadi. Masalan, o‘simlikning o‘sishi uchun suv va yorug‘lik zarurligini tajriba orqali ko‘rsatish mumkin. Ijodiy faoliyat — rasm chizish, aplikatsiya, qo‘l mehnati — bolalarda tabiatga nisbatan hissiy munosabatni kuchaytiradi va ularning tasavvurini boyitadi. Ekologik tarbiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab bolalarda tabiatga qiziqish uyg‘otiladi. Keyin ularga oddiy bilimlar berilib, tushunchalar shakllantiriladi. Shundan so‘ng amaliy faoliyat orqali bilimlar mustahkamlanadi va oxir-oqibat ekologik xulq-atvor odatga aylantiriladi. Tabiat va atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish murakkab, ammo muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayon samarali tashkil etilishi uchun aniq talablar asosida turli metodlardan foydalanish zarur.

Mamlakatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ta‘lim muassasalarida tabiat va ekologiyaga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishning pedagogik tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha bir qator vazifalar amalga oshirilmog‘da. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-yil 27-mayda O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta‘limni rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi.[2] Ushbu Konsepsiyaning 3-bobi Maktabgacha ta‘lim tizimida ekologik ta‘limni byanada takomillashtirish uchun oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, mazkur bobda ilk yoshdanoq ya‘ni bola tug‘ilib dastlab oiladan va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishni boshlashidanoq ona tabiatni asrab-avaylash borasidagi ilk tasavvurlarni uyg‘otishga hamda uni asrab-avaylash, tabiat va atrof olamni muhofaza qilish to‘g‘risidagi mavzularni ko‘paytirishga e‘tibor qaratish, davlat dasturlari va o‘qitish texnologiyalari asosida dasturda belgilangan ekologik ta‘limga oid mavzular va amaliy mashg‘ulotlarni to‘laqonli tashkil etish maqsadida “Ekologik bolajon” dasturini tuzish va amaliyotga tatbiq etish, jonsiz tabiat (o‘simliklar dunyosi), jonli tabiat (hayvonot dunyosi) hamda sayrda bo‘lib o‘tadigan jonsiz va jonli tabiat tushunchalarini uyg‘otishga yo‘naltirish va muammoga doir boshqa muhim ko‘rsatmalar belgilab berilgan.

Tevarak-atrofmizda mavjud tabiat qo‘li bilan yaratilgan har bir narsa va hodisalar borki, ular insoniyatning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Zero, bolalarda tabiat va ekologiya haqidagi tasavvurlarni shakllantirish bilan birga ularda atrof – muhit, tabiatga nisbatan ijobiy qarashlarni rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

25-Aprel, 2026-yil

Bunda bolalar tabiat hodisalarini kuzatish ko‘nikmasi, tajriba, odamlar orasida va ijtimoiy muhitda odob-axloq qoidalariga amal qilish malakalarini va ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi hamda mehr- muhabbat tuyg‘ulariga bo‘lgan tasavvuri bolalak chog‘laridan shakllanib boradi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilarda tabiatga va madaniyatga xos xulq-atvorga o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida tarbiyalanuvchilardan mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirishni taqozo qiladi. Demakki, bugungi kunda atrof – muhitga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish davr talabidir. ichimlik suvining kamayib borishi, havo haroratining keskin ko‘tarilishi, hayvonot va o‘simlik dunyosidagi turlarning yo‘qolib ketayotganligi, turli xil ishlab chiqarish va texnika vositalari ta’sirida atmosfera havosining ifloslanishi kabi qator muammolarning kelib chiqishi bevosita va bilvosita insonning tabiatga nisbatan noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotganligidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bugungi kunda ko‘plab siyosiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shular qatorida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni, hamda unga 1- ILOVA” sifatida kiritilgan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi” ni keltirishimiz mumkin. Konsepsiya VI ta bobdan iborat bo‘lib, unda mavjud global va mintaqaviy, milliy atrof- muhit muammolari, ularning bugungi kundagi holati, muammolarni hal etish yo‘llari hamda 2030- yilda atrof muhit muhofazasini yaxshilash borasidagi ishlar ko‘lamidan kutilayotgan natijalar keltirilgan. Yana shu qatorda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoniga 2- ILOVA” sifatida kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019-2021- yillarda amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” ishlab chiqildi.[2] Unga kiritilgan bir qator vazifalarning ham o‘z muddatida amalga oshirilganligini aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda amaliyot jarayonlarida bolalarda atrof-muhitga o‘zaro ijobiy munosabatlarni shakllantirishda turli texnologiyalardan foydalanish va ular orqali bola ongida tabiat va ekologiyani asrash va unga oqilona yo‘l bilan munosabatda bo‘lish, yaratilgan bog‘ni payhon qilish emas balki bir bog‘ning yoniga ikkinchi bog‘ni yaratish kabi mas’uliyatni shakllantirib borish masalasi ko‘ndalang qo‘yilmoqda. Hech birimizga sir emaski, jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunimizda inson va tabiat o‘rtasida yuzaga kelayotgan salbiy muammolar ko‘payib bormoqda. Bu kabi muammolarga yechimlar butun dunyoni bir nuqtaga jamladi desak mubolag‘a bo‘lmas.[3] Har bir soha ilmini chuqur egallash hamda uni boyitib borish uchun ma’lum bir bosqichlardan o‘tish talab etiladi. Ana shu kabi bosqichlardan biri sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini keltirishimiz mumkin. Bu ta’lim sohasidagi kichik bo‘g‘inlardan biri hisoblansada, ammo inson hayoti va uning kamoloti uchun katta ahamiyat kasb etadigan davr hisoblanadi. Zero, bola hayoti uchun kerak bo‘ladigan axborotlarning eng katta qismini aynan maktabgacha ta’lim yoshida egallab bo‘ladi degan qarashlar hozirgi kunda bizga notanish emas.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, bugungi kunga kelib maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini atrof-muhit bilan tanishtirishga nisbatan yangicha, kreativ yondashuvlarni izlab topish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda esa tabiat bizning asosiy vositamiz bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan

tanishtirish, ularda tabiatga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof- muhit haqidagi real bilimlarni anglab yetishning ta‘limiy va tarbiyaviy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ba‘zi kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof–muhitdagi faoliyati asosan o‘z-o‘zidan, tartibsiz va kutilmagan tarzda kechadi, buni ulardagi tabiatga bo‘lgan ba‘zi salbiy munosabatlarning asosiy sababi deb hisoblash mumkin. Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, tevarak atrofdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta‘siri bilan bunday nojoiz faoliyatlarga tuzatishlar kiritib boriladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdanoq bolalarni tabiat, atrof–muhit haqidagi ishonarli va aniq bo‘lgan ma‘lumotlarni egallab borishlari juda muhim. Bu kabi ma‘lumotlarni qiziqarliligi va tarbiyaviy ahamiyatini oshirgan holda bolalarga yetkazib berish biz kattalar hamda pedagoglar zimmasiga tushadi desak adashmaymiz. Chunki, “Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z vatanini tabiatini sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi”.[4]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar tarbiyasida faoliyatlar integratsiyasiga tayanish uning muvaffaqiyatini ta‘minlashga yordam beradi. Zamonaviy sharoitlarda bolalarni turli faoliyatlarga jalb etish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalalari, ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabatni shakllantirish “munosabat”, “mas‘ullik”ni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi. Atrof-muhitga mas‘uliyatli munosabat millatimizda qadim-qadimdan takomillashib kelayotgan ta‘limotdir. Bu ta‘limot atrof-muhitdagi barcha mavjudotlarga hurmat-e‘tiborni, uni go‘zal holatda saqlashni, inson bilan tabiatni Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar real voqelikni anglashi va uning shaxsiyati kamol topishida bolaning motivatsion-qadriyat muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2020. – 60 b.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo‘ljallangan atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019-2021- yillarda amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”3

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti. – Toshkent, 2020. – 35 b.

4."Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi. T. 2022 yil Quyida siz yozilgan maqola uchun mos foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ilmiy (bibliografik) shaklda keltirilgan:

5.Abdullayev F.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni shakllantirishning psixologik asoslari. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2023. – 120 b.

6.Suyunova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik axloqiy tarbiyani shakllantirish metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2025. – 98 b.

7.Yusupova M. Maktabgacha ta‘limda ekologik tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 102 b.

8.Aliyev A. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020. – 150 b.